



## Bank xizmatlari, iqtisodiy mohiyati va turlari

**Latipova Madina Zaripovna**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklarida menejment tavakkalchiligi bank tizimini xorijiy investorlar xizmat turlarini pul mablag'larini ichki manbalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini taqozo qiladi. Darhaqiqat, bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniya, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning qabul qilgan 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasito'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmonida aynan bank tizimini isloh qilish bo'yicha juda ham muhim ko'rsatmalarni ko'rsatib o'tganlar. Jumladan, quyidagi yo'nalishlar belgilab qo'yilgan:

-bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va



ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

-bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymayotgan to'siqlarni bartaraf etish. 2022-2023-yillarga mo'ljallangan bank faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar, shu jumladan:

-bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari yetarliligi va likvidligi darajasi ko'rsatkichini qo'llabquvvatlash;

-boshqaruv va bank tavakkalchiligi tizimi, shu jumladan, ilg'or xorijiy amaliyotlari asosida tijorat banklarida menejment tavakkalchiligi samaradorligini yanada oshirish;

-tijorat banklari faoliyatiga, shu jumladan, kredit siyosatiga davlat hokimiyati organlari tomonidan ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va yo'l qo'ymaslik;

-tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish, kredit portfeli miqdorini doimiy oshirib borish va uning sifatini yaxshilash, investitsiyaviy loyihalarni moliyalash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash ko'lamini yanada oshirish;

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini taqozo qiladi. Darhaqiqat, bu borada mobil aloqa,



internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniya, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari chakana xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini ko'paytirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiya qilib borishi banklar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi bank mahsulotlari paydo bo'lishining asosiy omili, binobarin, bank xizmatlari bozori rivojlanishiga sharoit yaratish hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh pul mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni kamida 30 foizga ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo'shimcha ravishda ishlab chiqish talab etiladi". Bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining to'liq shakllanmaganligi esa bank xizmatlarini rivojlanishiga ta'sir etadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirish borasida dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishning yo'llarini ishlab chiqishning zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi belgilaydi. Mamlakatimizdagi bank xizmatlari bozorini globallasuvi sharoitida va yirik banklarning ustun holatida bank xizmatlari, aktivlari va hisob-kitoblarni o'tkazish uchun etarli likvidli mablag'lar zahirasini, hisob-kitoblar to'lov tizimiga to'g'ridan-to'g'ri kira olishni, qat'iy valyutada konversion operatsiyalarni to'siqlarsiz o'tkazish imkoniyatini ta'minlovchi kapital ko'proq afzalliklarga ega bo'ladi. Taklif etilayotgan xizmat narxini o'rnatayotganda, tijorat banklari mijoz bank aksioner bo'lishi yoki bo'lmasligidan kat'iy nazar, bir xil yondoshishlari kerak. Tijorat banklari taqdim etgan xizmatlari uchun olinadigan foyda me'yori



yuqoridagilarga bog'liq holda ajratiladi. Shunday qilib, korxonani kreditlagani uchun bank tomonidan olinadigan foiz jalb qilingan mablag'larni o'zlashtirish jarayonidan olingan foyda normasidan ortmasligi kerak. Turli mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqilgan narxni shakllantirishni tahlili asosida quyidagilar aniqlandi:

- jalb qilingan pul mablag'larining qiymati;
- banklarning "ishlamaydigan" aktivlari (kassadagi, korrespondent schyotlardagi, Markaziy Bankdagi majburiy zahira fondlaridagi pul mablag'lari, ko'chmas mulk, immobilizatsiya qilingan mablag'lar);
- bank xizmatlarining ichki qiymati aniqlovchi va bank xizmatining ichki qiymat koeffitsienti orqali bank xizmati narxiga kiruvchi, umumbank xarajatlari;
- inflyatsiya va bank risklari. Yuqorida aytib o'tilgan narxni shakllantirish omillari o'z mohiyatiga ko'ra, bank xizmatlarining barcha turlariga nisbatan qo'llash mumkin. Ko'rsatilayotgan xizmatlar turiga bog'liq ravishda bank xizmati narxini shakllanishiga u yoki bu omilning ta'siri ortadi yoki kamayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
2. Supievn, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firuza. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.



3. Supievná, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.
4. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
5. Supievná, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firusa. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.
6. Supievná, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.